



QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil
yanvar-dekabr*



QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **3482,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **74,3** ming kishiga yoki **2,2 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1492,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,9 %**), qishloq aholisi soni **1990,3** ming kishi (**57,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3482,6 ming kishi

Tabiiy o'sish

+74,3 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- yanvar holatiga

Shahar




42,9%

Qishloq



57,1%


Erkaklar



50,6%

1 763,9 ming kishi

Ayollar



49,4%


1718,7 ming kishi

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining **34,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,2 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **9,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3408,3	3482,6	102,2
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	283,2	289,6	102,3
Shahrisabz sh	142,7	144,9	101,5
G'uzor	212,4	217,2	102,3
Dehqonobod	153,1	156,3	102,1
Qamashi	280,6	286,8	102,2
Qarshi	259,4	265,4	102,3
Koson	297,5	304,6	102,4
Kitob	271,2	276,3	101,9
Mirishkor	124,1	126,8	102,2
Muborak	90,3	91,8	101,7
Nishon	159,2	162,7	102,2
Kasbi	204,0	208,3	102,1
Ko'kdala	-	181,6	-
Chiroqchi	432,0	262,5	60,8
Shahrisabz	227,6	231,1	101,5
Yakkabog'	271,0	276,7	102,1

-Ko'kdala tumani yangi tashkil topgan tuman bo'lib, o'tgan davr va o'sish sur'ati ma'lumotlari kiritilmadi

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:
47,0 ming kishi



O'g'il bola:
51,3 ming kishi


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **98,3** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **52,2** % ni, qiz bolalar **47,8** % ni tashkil etadi.

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr


3 nafar va undan
ortiq egizak
0,0%


2 nafar egizak
2,1%




1 nafar
97,9%

2022- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:


-  1 nafar – **97,9%**
-  2 nafar – **2,1%**
-  3 nafar va undan ortiq – **0,0%**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qashqadaryo viloyat	97079	98339	101,3
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	6722	8507	126,6
Shahrisabz sh	3378	3404	100,8
G‘uzor	6201	6202	100,0
Dehqonobod	4829	4602	95,3
Qamashi	8399	8374	99,7
Qarshi	6934	6917	99,8
Koson	8860	8729	98,5
Kitob	7083	7295	103,0
Mirishkor	3340	3492	104,6
Muborak	2600	2122	81,6
Nishon	4646	4557	98,7
Kasbi	5568	5845	105,0
Ko‘kdala	-	4263	-
Chiroqchi	15255	10462	68,6
Shahrisabz	5667	5528	97,5
Yakkabog‘	7597	8040	105,8

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **98,3** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **28,5** promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan plus **0,3** promillega kamaygan (2021- yilning yanvar- dekabr oylarida **28,8** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **17,0** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan minus **0,5** promillega ko'paygan (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,4** promille).


O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, kishi




2022- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **43,2 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,0 %** i – o‘simtalardan, **17,2 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,9 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **21,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIHOHLAR




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **32239** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **9,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,4** promillega ko'payganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,1** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



2022- yil yanvar-dekabr oylarida **3,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **0,9** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi
2022- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **32,5 %** i farzandsiz, **41,7 %** i bitta farzand bilan va **25,8 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **9138** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **16235** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi - **7097** kishini tashkil etadi. 2021- yilning mos davrida -**9146** kishi bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, (ming kishi)




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,1** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **2,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan - **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **3,4** promille bo'lgan).

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, (ming kishi)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **16,2** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-1,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,1** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 75 221-15-84, 70-70